

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ASARLARIDA VATANGA MUHABBAT VA

YURT SOG‘INCHI

(Xususan, "Boburnoma" da Samarqand tasviri)

Aliyeva Navro‘za

Qoraqalpoq davlat universiteti

Jurnalistika fakulteti 2-bosqich talabasi

Daryayeva Sevara

Guliston davlat universiteti

Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ajdodlarimiz qoldirgan merosni o‘rganish, asrab-avaylash har bir avlodning burchidir. Ularning asarlari bizning haqiqiy boyligimizdir. Ana shunday buyuk asarlardan biri “Boburnoma”da tarixda Bobur davridagi voqealar tasvirlangan. Bu asar Andijon, Samarqand, Xo‘jand, Hirotdan Kobul va Agravacha bo‘lgan voqealarni qamrab oladi. Ya’ni, Markaziy Osiyodan Hindistongacha bo‘lgan qariyb 50 yillik voqealar unda to‘g‘ri ifoda va bahoni topdi. Biz ushbu maqolada “Boburnoma”da tasvirlangan tarixiy shaharlar, ilm-fanda ustun bo‘lgan alloma va olimlar haqida qisman bo‘lsada ma’lumotga ega bo‘lamiz. Muallif ushbu maqola orqali Bobur hayoti unda kechgan his-tuyg‘ularni ya’ni yurt sog‘inchini ko‘z oldimizda gavdalantirishga harakat qiladi.

Kalit so‘zlar: Bobur, "Boburnoma", Samarqand, Andijon, Hindiston, Temuriylar, Boburiylar, rasadxona, madrasa, lola.

Nafaqat O‘zbekistonda balki butun dunyoda ajdodlarimizga hurmat-ehtirom, ularning boy ilmiy merosini o‘rganishga qiziqish hamisha yuqori bo‘lgan. Xorijiy davlatlarda ularning hayoti va faoliyati haqida ilmiy va badiiy asarlar yaratilgan. O‘zbekistonda ham buyuk ajdodlarimizning xotirasiga bag‘ishlab haykallar o‘rnatilgan, bog‘lar barpo etilgan. Ularning turli fanga: tibbiyot, falsafa, jug‘rofiya, matematika, kimyo, astronomiya, din, adabiyot va me'morchilikka oid asarlari bizning bebaho boyligimizdir. Ajdodlarimiz yaratgan o‘lmas asarlar hali hanuz xalqimiz va butun jahon tomonidan yuksak e'tirof etilib, sevib o‘tilmoqda.

Har kimki vafo qilsa vafo topqusidir,

Har kimki jafu qilsa jafu topqusidir.

Yaxshi kishi ko‘rmagay yomonlik hargiz,

Har kimki yomon bo‘lsa jazo topqusidir.

Bobur qalamiga mansub ushbu ruboiyda vafo qilganlar vafo, jafu qilganlar jafu topqusidir deyilgan. Yaxshi kishi hech qachon yomonlik ko'rmashligi va kimki yomon bo'lsa albatta jazo topishini aytib o'tadi. Darhaqiqat Bobur adolatli podshoh bo'lgan. Yurti, xalqi uchun barcha narsaga tayyor turgan. Davlatini zolimlardan himoya qilgan. Bir so'z bilan aytganda shu kabi asarlar xalqni yaxshilikka, to'g'rilikka, halollikka chorlagan.

Tarix zarvaraqlariga o'z ismini yozdirib, buyuk iz qoldirgan shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur Andijon viloyatida tug'ilgan. Bolalik yillari juda qiyin kechgan. Otasidan erta yetim qolishi bilan bir qatorda, 12 yoshida toj-taxtni egallab, davlat boshqaruvi uning zimmasiga tushgan edi. Temuriylar o'rtasida taxt uchun kurashda esa bobo yurti Samarqandni egallash uchun jangu-jadallar orasiga kiradi. Samarqandni egallab turgan bir paytda Andijonda ukasi va bir nechta mulozimlar unga fitna uyushtiradi. Bobur esa Samarqanddan umidini uzib Andijonga qaytishga majbur bo'ladi. Bobur 1526-yilda Hindistonni egallaydi va u yerda Boburiylar davlatini barpo etadi. Bobur Hindistonda ham ko'plab asarlar yaratadi, g'azal, ruboiy va tuyuqlar yozadi. Uning ruboiylarda vatan sog'inchi, o'z tug'ilib o'sgan yurtiga bo'lgan muhabbati aks etadi. Har lahzada vataniga qaytish ishtiyoqi uni bir lahza ham tark etmaydi. Bu his tuyg'ularni biz uning ushbu ruboiysidan ham bilsak bo'ladi:

Tole' yo'qki jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishniki ayladim xatolig' bo'ldi.
O'z yerin qo'yib Hind sori yuzlandim,
Yo Rab netayin ne yuz qarolig' bo'ldi.

U o'zini dunyoda eng baxtsiz kishi deb hisoblaydi. Chunki u yurtini tashlab chiqadi. Endi begona ellarda yurt so'rmoqchi, podsholik qilmoqchi. Bularning hammasi uning uchun xato ishlar edi.

Boburning mashhur asarlaridan biri "Boburnoma" hisoblanadi. U "Voqeoti Bobur", "Boburiya", "Tuzuki Bobur", "Voqeanoma" nomlari bilan atalgan. Boburning o'zi esa "Vaqoye" va "Tarix" nomlarini ishlatgan. Boburnoma o'zida bayon qilgan voqealarga ko'ra 3 qismga: Boburning Movarounnahr (1494-1504), Afg'oniston (1504-1524) va Hindiston (1524-1530) dagi hukmronlik davriga bo'linadi. Boburnoma fanning qator sohalari uchun nihoyat darajada muhim ahamiyatga ega bo'lishi bilan birga o'zbek adabiyoti tarixida badiiy prozaning eng birinchi buyuk namunasi hisoblanadi. U asar adabiyotimizda proza janrini rivojlantirishga uzoq ijobiy ta'sir etib kelmoqda. Boburnoma Turkiston tarixidan ham hikoya qiluvchi asar edi. Unda Turkiston o'lkasining xalqi, urf-odatlar, daryolari, suvlari, xo'jaligi, mevalari, kasb-hunarlar, cho'l-adiri, tog'lari, o'simliklari, hayvonot olami haqida ko'p ma'lumotlar keltirilgan. Xususan 15—16-asrlarda Turkiston viloyatida yashagan qora qo'ylik (qo'yunluk) qabilasining hamda Movarounnahr dagi turkmo'g'ul qabilalarining urfodatlar, harbiy mahoratlari haqidagi ma'lumotlar, ayniqsa ilmiy jihatdan g'oyatda qimmatli bo'lib, ular

o‘zbek, qozoq, qirg‘iz va boshqa turkiyzabon xalqlar etnik tarixini o‘rganuvchilar uchun muhim ahamiyatga egadir. "Boburnoma" da Farg‘ona, Samarqand shaharlari va shu nomdagi viloyatlar, Ohangaron vodiysi, O‘ratepa va uning atrofi, Mascho, Hisor, Chag‘oniyon, Badaxshon, Kobul viloyati va boshqa joylar geografik jihatdan g‘oyatda qiziqarli tavsif qilingan bo‘lib, muallif o‘zi yurgan yo‘llar, o‘zi bo‘lgan shahar va qishloqlarni g‘oyat darajada aniq tasvirlagan.

“Boburnoma”dagi Samarqand tasviriga e‘tibor bersak: “Rub’i maskunda Samarqandcha latif shahar kamroqdur. Beshinchi iqlimdindur. Tuli ramzi nujumiy daraja va daqiqadur, arzi daraja va daqiqadur. Shahri Samarqanddur, viloyatini Movarounnahr derlar. Hech yog‘iy qahr va g‘alaba bila munga dast topmag‘on uchun baldayi mahfuza derlar”. Samarqand ta‘rifiga alohida e‘tibor bergan muallif odob saqlagan holda Yer yuzida ushbu shahardek boshqa shahar yo‘q demaydi, balki “kamroqdur” deya tasvirleydi. Shahar aholisi haqida “Eli tamom sunniy va pokmazhab va mutasharri’ va mutadayyin eldur”, tarzida fikr yuritgan Bobur shahar ahlining islomiy aqidada sodiqligini, bu esa, jamiyatda tartib-qoida ustuvorligini ta‘minlovchi asosiy mezon ekanini alohida ta‘kidlaydi. Samarqand tasvirida Bobur shaharning ko‘plab bog‘lari, me‘morchilik obidalari haqida ma‘lumot beradi. Temuriylar saltanatining poytaxti bo‘lgan ushbu shaharda Amir Temur davrida yanada ko‘plab me‘moriy obidalarining barpo etilgan, bog‘u rog‘lar yaratilgan va bu bunyodkorlik ishlari shahzodalar Shohruh, Ulug‘bek, Muhammad Sultonlar tomonidan munosib davom ettirilib bir qancha madrasalar, inshootlar, minoralar qad roslaganini alohida ta‘kidlab o‘tadi. Xususan, Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Bo‘ldu, Naqshi Jahon, Bog‘i Chanor, Bog‘i Shamol, Bog‘i Behisht kabi bog‘lar mazkur shaharga o‘zgacha ko‘rk, go‘zallik bag‘ishlab turganini zavq bilan tasvirleydi. Uning o‘zi ham shu kabi obidalar, bog‘lar yaratishni maqsad qiladi, ammo bu orzusini Kobul va Hindistonda amalga oshirishga majbur bo‘ladi.

Bobur Samarqand tasvirida Ulug‘bek madrasalari va rasadxonasini batafsil keltiradi: “Temurbekning va Ulug‘bek Mirzoning imorati va bog‘oti Samarqand mahallotida ko‘pdur... Ulug‘bek Mirzoning imoratlaridin Samarqand qal‘asining ichida madrasa va xonaqohdur. Xonaqohning gunbazi bisyor ulug‘ gunbazdur. Olamda oncha ulug‘ gunbaz yo‘q deb nishon berurlar”, tarzidagi ma‘lumotlardan madrasa va xonaqohning ulug‘vorligini, uning gunbazi ham ancha muhtasham ekanini tasavvur qilish mumkin. Bobur Samarqandni qo‘lga kiritganidan so‘ng bu yerda Ulug‘bek Mirzo tomonidan bunyod etilgan inshootlarni, me‘moriy obidalarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rishga musharraf bo‘ladi. Xususan, Ulug‘bek ilmiy salohiyatining nodir namunasi bo‘lgan rasadxonani ham diqqat bilan ko‘zdan kechiradi: “Pushtayi Ko‘hak domanasida rasaddurkim, zij bitmakning olatidur. Uch oshyonliqtur. Ulug‘bek Mirzo bu rasad bila “Ziji Ko‘ragoniy”ni bitibtur...”. Bu ma‘lumotlardan muallifning Ulug‘bek shaxsiyatiga, uning ilmiy faoliyatiga alohida ehtirom bilan qaraganini ko‘rish mumkin. Boburning ushbu tarixiy faktlari yana shunisi bilan ham muhimki, sobiq sho‘rolar

davrida Ulug‘bek rasadxonasi uning vafotidan keyin Xoja Ahror Vali topshirig‘i bilan buzib tashlangan degan soxta ideologiyaga munosib javob ham bo‘ladi. Sababi, Ulug‘bek vafotidan bir qancha vaqt o‘tib bu rasadxonani o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, uni o‘sha davrda hali ham muhtasham inshoot ekanini tasvirlagan Boburning bu tarixiy ma‘lumotlari juda qimmatli hisoblanadi.

“Boburnoma”da adabiyot va san‘at ahli, ilm-ma‘rifat kishilariga ham munosib o‘rin berilgan. Unda Abdurahmon Jomiy, Shayxim Suhayliy, Husayn Ali Tufayliy, Sayfiy Buxoriy, Mir Husayn Muammoiy, Mullo Muhammad Badaxshiy, Yusuf Badiiy, Ohiy, Muhammad Solih, Hiloliy, Ahliy, Alisher Navoiy, Binoiy va boshqa so‘z ustalari haqida maroqli hikoyalar mavjud. Xususan Alisher Navoiy haqida shunday degan "Alisherbek naziri yo‘q kishi edi. Turkiy til bila to she'r aytubdurki, hech kim oncha ko‘p va xo‘p aytgon emas. Yana musiqada yaxshi nimaxo‘r bog‘labtur. Yaxshi naqshlari va yaxshi peshravlari bordur." Kotiblardan Sulton Ali Mashhadiy, musavvirlardan Kamoliddin Behzod, Shoh Muzaffar, musiqa ustalaridan Qul Muhammad Udiy, Shayxi Noyiy, Shohquli G‘ijjakiy va boshqalarni faxr va iftixor bilan tilga oladi.

Asarda o‘simliklar va hayvonot olami haqidagi nodir ma‘lumotlar ham jamlangan, jumladan, adib Afg‘onistondagi Dashti Shayxda o‘ttiz uch xildagi bir-birini takrorlamaydigan lola turlari haqida gapiradi. Kobul atrofidagi Gulbahor degan bir joydagi lolalarni sanatganda, u yerdan 34 xil lolani keltiradilar. Mana shu asnoda shoirning quyidagi g‘azali yaratiladi:

Mening ko‘nglumki, gulning g‘unchasidek tah-batah qondur,

Agar yuz ming bahor o‘lsa, ochilmoqi ne imkondur.

"Boburnoma"ni hamda Boburning she‘riy merosini o‘rganishda ko‘p olimlar salmoqli hissa qo‘shdilar. Professor Fitrat tomonidan tuzilgan "O‘zbek adabiyoti namunalari" xrestomatiyasida "Boburnoma"dan parchalar, Boburning 31 g‘azali, 2 masnaviy va 28 ruboiysi berilgan. M. Salye "Boburnoma"ni rus tiliga to‘la tarjima qilib, 3-marta (1958, 1982, 1993) nashr ettirdi. P.Shamsiyev va S. Mirzayevlar tomonidan "Boburnoma"ning ikki jildli (1948) va bir jildli (1960) nashri chop etildi. 1956—66 yillarda Boburning uch jildli tanlangan asarlari chop etilib, unga Boburning she‘riy devoni (1jild) va "Boburnoma" (2—3jildlar) kirgan.

Bobur o‘zining ma‘lum va mashhur asarlari bilan tarixnavis adib, lirik shoir va ijtimoiy masalalar yechimiga o‘z hissasini qo‘shgan olim sifatida xalqimiz ma‘naviy madaniyati tarixida munosib o‘rin egallaydi. Shu bilan birga Bobur lirikasida she‘riyatning asosiy mazmuni bo‘lgan insoniy fazilatlar, yor vasli, uning go‘zalligi, unga cheksiz muhabbat va hijron azobi, ayrilig‘ alamlari va visol quvonchlari nihoyat go‘zal va mohirona ifoda etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boburnoma. Toshkent. 1960;
2. Abdurashid Abdugʻafurov. Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 1-jild. Toshkent. 2000;
3. Oʻzbekiston adabiyoti tarixi. 3-jild. Toshkent. 1978;
4. Ozod Sharafiddinov "Alisher Navoiy" Toshkent Fan. 1978.